
"Abdulla Qodiriy" mavzeida o'tkazilgan sayyor qabulda yigirmaga yaqin fuqarolarning murojaatlari ijobiy hal etildi

Farg'ona shahar hokimligi tomonidan 1-sektor hududidagi 28-maktabda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sayyor qabul o'tkazildi. Unda shahar hokimining o'rinbosarlari va masalaga dahldor bo'lgan korxonalar hamda tashkilotlar rahbarlari ishtirok etishdi.

Qabul davomida 80 nafarga yaqin fuqarolardan tushgan murojaatlar mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. Yigirmaga yaqin murojaatlar ijobiy hal qilindi.

Murojaatlarni joyida o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha fuqaroga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilotlar va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-12 22:23:14